

ISSN: 2181-1040  
DOI: 10.26739/2181-1040  
tadqiqot.uz/renaissance



# JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL  
ASIAN RENAISSANCE**



VOLUME 5 | **2024**  
ISSUE 3

# МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 5, СОН 3

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ  
ТОМ 5, НОМЕР 3

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE  
VOLUME 5, ISSUE 3



## Бош муҳаррир:

### МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор  
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

## Бош муҳаррир ўринбосари:

### ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент Мирзо  
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

## Бош муҳаррир ўринбосари:

### ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),  
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

## МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

### МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,  
профессор (Ўзбекистон)

### ҲАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадий  
академияси академиги, санъатшунослик фанлари  
доктори, профессор (Ўзбекистон)

### МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари  
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

### ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ISFT professori, siyosiy fanlar doktori (O'zbekiston)

### МАХМУДОВА ГУЛИ ТИЛАБОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
қошидаги "Фалсафа" илмий марказ раҳбари,  
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

### ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси илмий  
ва инновация ишлари бўйича проректори,  
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

### КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари  
кафедраси PhD доктори (АҚШ)

### АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети  
профессори (Испания)

### ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги  
Ўзбекистон Миллий университети  
халқаро ишлар бўйича проректори,  
филология фанлари доктори,  
профессор (Ўзбекистон)

### КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,  
тарих фанлари доктори (АҚШ)

### ГАБИТОВ ТУРСУН ҲАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети  
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

### ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети "Фалсафа" кафедраси  
муdiri, фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

### МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган муҳандислик-технология институти профессор,  
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

### САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти  
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

### ИНАКОВ КОМИЛЖОН ҚОДИРЖОНОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий  
университети доценти, педагогика фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

### ТОШОВ ХУРШИД ИЛХОМОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
доценти, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

### ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
доц.в.б., фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

### МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети доценти, социология  
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

### ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

### РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн-саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## Главный редактор:

**МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА**

доктор философских наук, профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## Заместитель главного редактора:

**ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА**

доктор философии (PhD), по философским наукам, доцент  
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## Заместитель главного редактора:

**ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ**

доктор философских наук (PhD), Национальный  
университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

**МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ**

Ректор Национального университета Узбекистана,  
профессор (Узбекистан)

**ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ**

Академия наук Узбекистана,  
академик Академии художеств Узбекистана,  
доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

**МАРИАННА КАМП РУТЦ**

профессор Центра Евразийских исследований  
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

**ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ**

Профессор ISFT института,  
доктор политических наук (Узбекистан)

**МАХМУДОВА ГУЛИ ТИЛАБОВНА**

руководитель Научного центра «Философия» при  
Национальном Университете Узбекистана имени Мирзо  
Улугбека, доктор философских наук, профессор (Узбекистан)

**ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ**

проректор по научным исследованиям и инновациям  
Международной исламской академии Узбекистана,  
доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

**КЛЭР РООСИЕН**

PhD доктор кафедры  
Славянских языков и литературы  
Йельского университета (США)

**АНТонио АЛОНСО МАРКОС**

профессор Университета  
CEU имени Сан Пабло (Испания)

**ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА**

проректор по международным связям  
Национального Университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук,  
профессор (Узбекистан)

**КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ**

профессор Университета Хофстра,  
доктор исторических наук (США)

**ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ**

профессор кафедры религиоведения и культурологии  
Казахского Национального Университета имени Аль-Фараби,  
доктор философских наук (Казахстан)

**ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА**

заведующая кафедрой «Философия» Андижанского  
государственного университета, кандидат  
философских наук, профессор. (Узбекистан)

**МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ**

профессор Наманганского инженерно-технологического  
института, доктор философских наук (Узбекистан)

**САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА**

Навоийского государственного педагогического института,  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)

**ИНАКОВ КАМИЛЖОН КАДЫРЖАНОВИЧ**

доцент Национального Университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD)  
по педагогическим наукам (Узбекистан)

**ТОШОВ ХУРШИД ИЛХОМОВИЧ**

доцент Национального Университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека, доктор философии  
по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

**ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА**

и.о. доцент Национального Университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека, доктор философии  
по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

**МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ**

доцент Наманганского государственного университета, доктора  
философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

**ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ**

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо  
Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD)  
(Узбекистан)

**РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ**

докторант кафедры Философии и логики Национального  
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## Chief Editor:

### MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor  
The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

## Deputy Chief Editor:

### YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Doctor of Philosophy (PhD), in Philosophical Sciences,  
Docent of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

## Deputy Chief Editor:

### KHODZHIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Doctor of Philosophy (PhD), National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

## MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

### MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

### KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan,  
Academician of the Academy of  
Arts of Uzbekistan, Doctor of  
Art History, Professor (Uzbekistan)

### MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies  
at Indiana University, Doctor of History (USA)

### DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,  
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

### MAKHMUDOVA GULI TILABOVNA

Head of the Scientific Center "Philosophy"  
at the National University of Uzbekistan  
named after Mirzo Ulugbek, Doctor of  
Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

### ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

Vice-Rector for Research and Innovation of the  
International Islamic Academy of Uzbekistan,  
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

### CLAIRE ROOSIEN

Department of Slavic Languages and Literature  
of the Yale University, PhD (USA)

### ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU  
named after San Pablo (Spain)

### SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National  
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,  
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

### KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,  
Doctor of Historical Sciences (USA)

### GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,  
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

### YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

the head of the "Philosophy" department of Andijan  
State University, DCS, professor. (Uzbekistan)

### MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan Institute of Engineering  
and Technology, Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

### SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor  
of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

### INAKOV KOMILJON KODIRJONOVICH

Associate Professor of the National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,  
Doctor of Philosophy (PhD) (Uzbekistan)

### TOSHOV KHURSHID ILKHOMOVICH

Associate Professor of the National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,  
Doctor of Philosophy (PhD) (Uzbekistan)

### JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Associate Professor of the National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

### MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Associate Professor of Namangan State University,  
Doctor of Philosophy (PhD) on  
Sociological Sciences (Uzbekistan)

### SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named  
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

### RO'ZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD O'G'LI

doctoral student of the National University of Uzbekistan  
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Hamid Sulaymon, Erkinov Aftondil Sadirxonovich</b> NAVOIY ASARLARINING MANBA'LARI VA NASHRI HAQIDA.....	7
<b>2. Yusupova Dildora Dilshatovna</b> ISLOM MODERNIZMINING TARIXIY-FALSAFIY TAHLILI.....	27
<b>3. Djurayev Avaz Ahmedjanovich, Zakirov Shakir Mamajanovich</b> AJDODLAR DONOLIGI: ZAMONAVIY DUNYODA KONFUTSIY MEROSI.....	35
<b>4. Lalixon Muxamedjanova</b> GLOBALLASHUV JARAYONIDA ZAMONAVIY AXLOQIY MUAMMOLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	43
<b>5. Ro'ziboyev Dostonbek Dilmurod o'g'li</b> XX ASRNING IKKINCHI YARMIDAGI G'ARB ORIENTALIZMI INQIROZINING FALSAFIY TAHLILI.....	49
<b>6. Xudjaqulova Feruza Raxmatovna</b> JAMIYATNING MAFKURAVIY HAYOTI, UNING TARKIBIY TUZILISHI VA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI.....	58
<b>7. Berdimuratova Lazzat Duysenovna</b> QIZILQUM HUDUDIDAGI GIDRONIMLAR VA ANTROPOGIDRONIMLARNING ETIMOLOGIK TAHLILI.....	66
<b>8. Normo'minova Nasiba Dilshod qizi</b> BASHORAT TUSHUNCHASINING FALSAFIY TALQINI.....	76
<b>9. Kobilova Makhfuza Sherali kizi</b> ANALYSIS OF LEXICAL-SYNTACTIC AND SYNTACTIC STYLISTIC MEANS OF LANGUAGE.....	83

ISSN: 2181-1040

www.tadqiqot.uz

**МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ**

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ


**JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE****Xudjaqulova Feruza Raxmatovna**

Navoiy davlat universiteti

“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari  
va huquq ta’limi” kafedrası

katta o‘qituvchisi, f.f.f.d (PhD)

E-mail: xudjaqulova87@mail.ru

**JAMIYATNING MAFKURAVIY HAYOTI, UNING TARKIBIY TUZILISHI VA  
NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14679617>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyat hayotida yuz berayotgan voqea, hodisa va jarayonlarning mazmun-mohiyatini tahlil qilish asosida o‘quvchi-talaba yoshlarning milliy mafkuraviy ongini shakllantirishning falsafiy jihatlarini o‘rganishdan iborat bo‘lib, u quyidagi vazifalarni: ijtimoiy falsafa tizimida mafkuraviy ongning tarkibiy tuzilishini tahlil qilish asosida, uning ijtimoiy ong shakllaridan biri ekanligini isbotlash; “g‘oyaviy-mafkuraviy hayot”, “mafkuraviy ong” va “mafkuraviy faoliyat”, “mafkuraviy munosabat” kabi tushunchalarining falsafiy ma’no-mazmunini ochib berish; jamiyatning g‘oyaviy-mafkuraviy hayotiga nisbatan tarkibiy - funksional yondashuv va qarashlarni aniqlash asosida milliy mafkuraviy ongning ontologik tabiati va gnoseologik xususiyatlarini ochib berish; ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya olayotgan o‘quvchi-talaba yoshlarning milliy mafkuraviy ongini shakllantirishning milliy meros va qadriyatlar, umuminsoniy demokratik tamoyillarga asoslangan usul va vositalarini ishlab chiqish kabilarni bajarishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Mafkura, milliy mafkura, g‘oya, g‘oyaviy-mafkuraviy hayot, mafkuraviy ong, mafkuraviy faoliyat, mafkuraviy munosabat, mafkuraviy bashorat, mafkuraviy vaziyat, mafkuraviy maqsad, mafkuraviy siyosat, mafkuraviy tajovuz, g‘oyaviy ziddiyat, g‘oyaviy qaramlik, gnoseologiya, jamiyat, ideosfera, ma’naviy dunyo, vosita, usul, ta’lim, tarbiya.

**Xudjaqulova Feruza Raxmatovna**

Navoi State University

Department of “National Idea,

Fundamentals of Spirituality, and Legal Education”

Senior Lecturer, PhD in Philosophy

E-mail: xudjaqulova87@mail.ru

**THE IDEOLOGICAL LIFE OF SOCIETY ITS STRUCTURE AND FEATURES OF  
MANIFESTATION****ABSTRACT**

This article studied the philosophical aspects of the formation of the national ideological consciousness of young people on the basis of the analysis of the content of events and processes

occurring in society at the new stage of the development of Uzbekistan. It is aimed at implementing the following tasks: to prove the structural form of ideological consciousness in a social philosophy system based on the analysis of the structural composition of ideological consciousness; disclose the meaning and content of aspects as "ideological life", "ideological mind", "ideological activity", "ideological relationship", to reveal the ontological nature and the sub-sensational properties of the national ideological consciousness based on identifying structural - functional approaches and views on the ideological life of society; Development of methods and means of national heritage and values based on universal democratic principles of formation of the national ideological consciousness of students and students studying in educational institutions.

**Keywords:** Ideology, national ideology, idea, ideological life, ideological consciousness, ideological activity, ideological forecast, ideological situation, ideological goal, ideological policy, ideological aggression, ideological contradiction, ideological dependence, gnesorate, society, ideophel, spiritual world, tool, method, Education, education.

**Худжакулова Феруза Рахматовна**  
Навоийский государственный университет  
Кафедра «Национальная идея, основы  
духовности и правовое образование»  
Старший преподаватель, д.ф.н. (PhD)  
Эл. почта: [xudjaqulova87@mail.ru](mailto:xudjaqulova87@mail.ru)

## ИДЕОЛОГИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ ОБЩЕСТВА, ЕЕ СОСТАВ, СТРУКТУРА И ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ

### АННОТАЦИЯ

Данная статья направлена на исследование философских аспектов формирования национально-идеологического сознания студентов на основе анализа содержания и сущности событий, событий и процессов, происходящих в жизни общества на новом этапе развития Узбекистана, и имеет следующие задачи: в системе социальной философии на основе анализа структурной структуры идеологического сознания доказать, что оно является одной из форм общественного сознания; раскрыть философский смысл таких понятий, как «идейно-идеологическая жизнь», «идеологическое сознание» и «идеологическая деятельность», «идеологическая установка»; раскрыть онтологическую природу и гносеологические особенности национального идеологического сознания на основе структурно-функционального подхода и определения взглядов на идейно-идеологическую жизнь общества и национальное наследие формирования национального идеологического сознания; студенты, получающие образование в учебных заведениях, кадры, направленные на освоение методов и средств, основанных на универсальных демократических принципах.

**Ключевые слова:** Идеология, национальная идеология, идея, идейно-идеологическая жизнь, идеологическое сознание, идеологическая деятельность, идеологическая установка, идеологический прогноз, идеологическая ситуация, идеологическая цель, идеологическая политика, идеологическая агрессия, идеологический конфликт, идеологическая зависимость, гносеология, общество, идеосфера, духовный мир, инструмент, метод, образование, воспитание.

**Kirish.** Ma'lumki, jamiyat hayoti – bu ijtimoiy subyektlarning muayyan tarixiy sharoitda mavjud bo'lgan voqelikni o'zlashtirish va o'zgartirishga qaratilgan faoliyat turi va shakllaridan tashkil topgan real jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning negizini inson mehnat faoliyatiga asoslangan moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish tashkil etadi. Bunda moddiy ishlab chiqarish kishilarning moddiy (oziq ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqalar) ma'naviy ishlab chiqarish esa ularning ma'naviy (ilm-fan, adabiyot, san'at, kitob, gazeta, axborotlar olish, qadriyatlar va boshqalar) ehtiyojlarini qondiruvchi narsalarni yaratish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bunda ma'naviy ishlab

chiqarish – ijtimoiy ong shakllari, ma'naviy qadriyatlar, g'oyalar olamidan tashkil topadi va uni takror ishlab chiqarishga, ya'ni ko'paytirishga, xususan avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorisiylikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Jamiyat hayotining yadrosini tashkil qiluvchi moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlarining gohida uyg'un, gohida ziddiyatli kechishi, ularning ijtimoiy ong shakllari sifatida aks etib, mafkura tarzida o'zligini namoyon qilishi shaxs, ijtimoiy guruh, elat, millat, sinf va jamiyat hayotida mafkuraviy sohaning mavjudligidan darak beradi.

Jamiyatning mafkuraviy hayoti deb, jamiyatda hayotida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlarni o'z orzu-istak, maqsad-muddaolariga mos ravishda izchil kechishini ta'minlashga qaratilgan shaxs, ijtimoiy guruh, sinf, elat, millat kabilarning g'oyaviy-nazariy qarashlari va ularni amalga oshirish usul va vositalarini o'zida mujassamlashtirgan institutsional tizimlariga aytiladi.

**Mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi.** O'zbek xalqining milliy g'oya va mafkurasining nazariy-metodologik asoslari haqidagi fikrlarni o'zida mujassamlashtirgan buyuk davlat va siyosat arbobi I.A.Karimov va O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan yozilgan asarlar, nutq va ma'ruzalarini kiritish mumkin. Q.N.Nazarov, I.Ergashev, B.O.To'rayev, S.Otamuradov, J.Ya.Yaxshilikov, A.Muxtorov, N.E.Muhammadiyev kabi o'ndan ortiq olimlar tomonidan milliy g'oya va mafkuraning nazariy, amaliy qismlari, kelib chiqish tarixi, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, bunyodkor va vayronkor g'oyalar o'rtasidagi kurash, globallashtirish jarayonida kechayotgan mafkuraviy kurash, milliy mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash borasida yozgan kitoblari, ilmiy-amaliy ishlanmalarini kiritish mumkin.

“Jamiyatning g'oyaviy-mafkuraviy hayoti o'z ichiga: mafkuraviy vaziyat, mafkuraviy maqsad, mafkuraviy siyosat, mafkuraviy tajovuz, mafkuraviy xavfsizlik, mafkuraviy tolerantlik, g'oyaviy bo'shliq, g'oyaviy ziddiyat, g'oyaviy qaramlik, g'oyaviy parokandalik, g'oyaviy zaiflik, g'oyaviy va mafkuraviy tarbiya, mafkuraviy maydon, mafkuraviy poligon, mafkuraviy immunitet, mafkuraviy profilaktika kabilar jamiyat hayotida kechayotgan barcha g'oyaviy va mafkuraviy jarayonlarni, ularning tur va shakllarini o'z ichiga qamrab oladi. Bu esa uning ko'p qirrali makro va mikro sohalardan tashkil topganligini ko'rsatadi” [ 1, 84-bet].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Demak, jamiyat hayotining mafkura sohasini o'rganayotganda, uning ko'p qirrali mafkuraviy faoliyat yuritish tizimidan iborat ekanligini inobatga olgan holda mazkur sohaning quyidagi jihatlariga: muayyan g'oyalar, ularning namoyon bo'lish shakllari, xususiyatlari va mafkura yo'nalishidagi faoliyat tizimi; jamiyatning shu sohasiga xos ijtimoiy munosabatlar va insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tartibga soluvchi ba'zi talab va qoidalar majmui; g'oya va mafkura sohasidagi ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqot tizimidan iborat yaxlit hodisalar va jarayonlar majmui; insonning g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar doirasida amalga oshiradigan, o'zini va o'zi yashayotgan muhitni takomillashtiruvchi ijodiy faoliyati va uning natijalari; insonning ezgu g'oyalar va ideallarga intilishi, kamoloti, uning ma'naviy qiyofasining takomillashuv darajasi; jamiyatning barcha sohalar bilan o'zaro aloqador bo'lgan, muayyan g'oya va mafkura asosida shakllanadigan talablar va tamoyillar hamda inson hayoti va faoliyatini belgilovchi mezonlar tizimi ekanligiga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi.

Insonni o'rab turgan obyektiv borliqning tuzilish, o'zaro bog'lanish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish jarayoni cheksiz davom etadigan jarayon bo'lib, uning natijasida tabiat va jamiyatning yangicha tipdagi tarkibiy tuzilishini o'zida ifodalaydigan bir qator sohalar paydo bo'ladi. Shunga muvofiq tarzda ularning tub mohiyatini o'zida ifodalaydigan tushunchalar, atamalar ham yuzaga keldi. Masalan, biosfera, geosfera, gidrosfera, litosfera, noosfera kabi atamalar shular jumlasidandir. Shunga ko'ra jamiyat hayotining mafkura sohasini o'rganuvchi mutaxassislar, ushbu sohani tadqiq qilishda “ideosfera” atamasini qo'llashni maqsadga muvofiq deb hisoblamogdalar. Ushbu atamaning kelib chiqish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bunda G'arbiy yevropada shakllangan jamiyatlarning g'oyaviy-mafkuraviy hayotini o'rganish, u haqida ta'limot yaratishga harakat qilgan frantsuz faylasufi va iqtisodchisi A.L.K.Destyut de Trasse o'zining 1815 yilda yozgan “Ideologiya elementlari” nomli kitobida birinchi marta “ideologiya” so'zini falsafiy tushuncha sifatida ishlatganligini uchratamiz.

Bugungi kunda nashr etilayotgan ilmiy-falsafiy adabiyotlarda “g‘oya”, “mafкура”, “ideya” va “ideologiya” tushunchalari ishlatilmoqda. Bular asosan sinonim tushunchalar bo‘lib, o‘zbek tilidagi adabiyotlarda “g‘oya” va “mafкура”, xorijiy tillardagi, shu jumladan rus tilidagi adabiyotlarda esa “ideya” va “ideologiya” tushunchalari tarzida qo‘llanilmoqda.

“Ideya” iborasi yunon tilidagi “idea – g‘oya” so‘zidan olingan bo‘lib, “ideologiya” so‘zi uchun o‘zak vazifasini bajargan holda “g‘oya” yoxud “tushuncha”, “fikr” ma‘nosini anglatadi. Ideologiya (yunoncha idea – g‘oya, tushuncha, logos – ta‘limot) atamasi esa siyosiy, huquqiy, axloqiy, falsafiy, diniy va sh.k. qarashlar va g‘oyalar tizimini o‘zida ifodalagan holda quyidagi ikki xil: birinchidan, g‘oyalarning mazmuni, shakllanishi, ahamiyati to‘g‘risidagi bilimlarni ifodalaydigan ilmiy soha; ikkinchidan, muayyan g‘oyani amalga oshirish, maqsadga yetish usullari, vositalari, omillari tizimi degan ma‘nolarni anglatish uchun ishlatiladi.

Bugungi kunda olimlar “ideosfera” tushunchasini ikki xil yondashuv asosida: bir tomondan, jamiyatning mafkuraviy hayotining turli xil jabhalarida sodir bo‘layotgan jarayonlarni, ularni maqsadga yo‘naltirish, tartibga solish, boshqarish borasida olib borilayotgan mafkuraviy faoliyat yuritish ishlarini; ikkinchi tomondan esa, insonni o‘rab turadigan g‘oya va mafkuralar dunyosi mavjud, unda g‘oyalar va mafkuralar vujudga keladi, amal qiladi, o‘tmishga aylanadi yoki saqlanib qoladi, odamlar doimo ularning ta‘siri ostida yashaydi. Unda hech bir g‘oya izsiz yo‘qolmaydi. Har qanday kishi tomonidan biron-bir zamonda bayon qilingan g‘oya unda muayyan o‘rin egallaydi, zarur hollarda namoyon bo‘ladi, odamlarga ta‘sir ko‘rsata, [2,135-bet] degan ma‘noni ifodalash uchun qo‘llayotganligini ko‘ramiz.

**Muhokama va natijalar.** Birinchi yondashuvga ko‘ra, ideosferaning obyektini mafkuraviy faoliyat predmetlari tashki etsa, uning sub‘ektini esa mafkuraviy faoliyatni maqsadga yo‘naltirish, tartibga solish, boshqarish funksiyalarini professional darajada amalga oshiruvchi, shu sohada egallagan kasbi hisobiga o‘z ehtiyojlarini qondiruvchi odamlar va ularning birlashmalari tashkil etadi. Bularning vakolatlari qonunda belgilab qo‘yilgan bo‘lib, qonundan tashqari bo‘lgan barcha mafkuraviy faoliyat sub‘ektlari maqsad-muddalari, amaliy xatti-harakatlariga qarab huquqiy jihatdan baholanadi. Bordi-yu, ularning g‘oyaviy qarashlari, mafkuraviy xatti-harakatlari qonunga zid bo‘lsa, o‘zbek xalqining mentalitetiga mos kelmasa, bular norasmiy mafkuraviy tashkilot, birlashma sifatida qaralib, ularning faoliyati to‘xtatiladi. Aniqrog‘i, xalq tomonidan e‘tirof etilgan bunyodkor mafkuralar, rasmiy tan olingan ideosfera doirasidan o‘ziga joy oladi, tan olinmagan vayronkor mafkuralar esa undan chetga surib chiqariladi.

Ikkinchi yondashuvga ko‘ra ideosferani ikki qismga, ya‘ni dunyoviy va diniy ideosferaga ajratish mumkin.

Dunyoviy ideosfera – bu tabiat, jamiyat, inson borlig‘ini ilmiy jihatdan bilish orqali hosil qilingan g‘oyalar tizimidan tashkil topgan, haqiqatligi amaliyotda tasdiqlangan ilmiy g‘oyalar va mafkuralar dunyosidir.

Diniy ideosfera – bu tabiat, jamiyat, inson borlig‘ini, uning rivoji va tanazzulini, kelgusidagi taqdirini Yaratganning irodasiga bog‘lab tushuntiruvchi g‘oya va mafkuralar tizimidan tashkil topgan mo‘jizakor g‘oyalar va mafkuralar dunyosidir.

Ideosfera doirasida xizmat qiluvchi mutaxassislar, katta-kichik xodimlar, xizmatchilar – ideologlar (mafkurachilar) deb ataladi. Ular faoliyatining ob‘ektini odamlar tashkil qiladi. Ideologlarning vazifasi esa odamlarning ongi va tafakkurini davr talab qilayotgan g‘oyaviy va mafkuraviy mezonlarga mos ravishda o‘zgartirish asosida yangicha dunyoqarashni shakllantirishdan iboratdir. Bu vazifani bajarish esa, jamiyatning mafkuraviy hayotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan mafkuraviy jarayonlarning mohiyati, mazmuni va yo‘nalishlarini bilishdan boshlanadi. Demak, har qanday jamiyatning mafkuraviy hayoti mafkuraviy jarayon sifatida kechadi.

Jamiyatda qaror topgan g‘oya va mafkuralari shunchaki oddiy tushunchalar bo‘lmasdan, balki odamlarni harakatga chorlovchi ma‘naviy qudratga ega bo‘lgan vositalar jumlasiga kiradi. Bu vositalar o‘z navbatida insonning aql-zakovati orqali ishga tushiriladi. Zero shunday ekan, mafkuraviy bashorat, mafkuraviy maqsad, mafkuraviy mo‘ljal, mafkuraviy siyosat kabilar mafkuraviy jarayonlarni yuzaga keltiruvchi inson aql-idrokining mahsuli bo‘lmish mafkuraviy ong komponentlari hisoblanadi. Bularning bevosita ishtirokisiz mafkuraviy jarayonlar sodir bo‘lmaydi.

Xo'sh, shunday ekan mafkuraviy jarayonlar deb nimaga aytiladi? O'zbek tilida odatda jarayon deganda biron bir bajarilayotgan ish-harakat, voqea-hodisaning birin-ketin borishi, rivoji, oqimi tushuniladi. Shunga ko'ra, mafkuraviy jarayon deb, shaxs, elat, millat, xalq va jamiyatning biron bir maqsadni ko'zlab yuritayotgan mafkuraviy faoliyatlarining ketma-ketlikda borishi, rivoji va oqimiga aytiladi [ 3,98-bet].

Mafkuraviy jarayonning tarkibiy qismlariga: a) mafkuraviy ong va uning komponentlari; b) mafkuraviy munosabatlar; v) mafkuraviy soha haqida mavjud bo'lgan bilimlar tizimi; g) mafkura sub'ektlarining bilimlilik darajalari; d) qat'iy qaror topgan ma'naviy qadriyatlar; y) davlat hokimiyati tomonidan olib borilayotgan mafkuraviy siyosat tamoyillari va shu kabilar kiradi.

Mafkuraviy jarayonlarning mazmuni mavjud borliqda real mavjud bo'lgan ijtimoiy tuzumning tarkibiy tuzilishi, ular o'rtasidagi aloqadorliklarning xususiyatlari, mohiyati esa uning kimlarning manfaatini ko'zlab, qanday yo'sinda sodir bo'layotganligiga sabab bo'luvchi ichki qarama-qarshiliklarning qanday kechayotganligi bilan belgilanadi.

Mafkuraviy jarayonlarga xos bo'lgan xususiyatlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin. Mafkuraviy jarayonlar:

1. O'z-o'zidan yuz bermaydi, u muayyan sabablarga ko'ra mafkura ilmining qonunlariga mos ravishda obyektiv tarzda sodir bo'ladi.

2. Tarixiy makon va zamonda abadiy emas, balki o'zgaruvchan xarakterga egadir.

3. O'ziga xos tayanch, negiz rolini o'ynaydigan g'oya va mafkura tamoyillari asosida harakat qiladi.

4. Dialektik tarzda kechadi va mafkuraviy faoliyat yuritishning istiqbollari mantiqiy jihatdan belgilab olish imkoniyatini yaratadi.

5. Bunyodkor va vayronkor g'oyalar o'rtasidagi kechayotgan murosasiz kurash natijasi o'laroq yangicha mazmun va mohiyatga ega bo'la boradi.

Bugungi kunda jahonda kechayotgan mafkuraviy jarayonlarning hara- katlantiruvchi kuchlari xilma-xilli bo'lib, ular transnatsional xarakterga ega bo'lib bormoqda. Mafkuraviy jarayonlar alohida olingan mamlakatlar, mintaqalar doirasida ham, global miqyosda ham bunyodkor va vayronkor g'oyalar o'rtasidagi kurashning keskinlashib, bunda buzg'unchi g'oyalarning jamiyat rivojiga salbiy ta'sirining kuchayib borayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Bunday vayronkor g'oyalarning ta'siriga qarshi kurash butun insoniyatni ezgulikka yo'g'rilgan o'z istiqbolini ta'minlash yo'lida birlashishga da'vat etmoqda. Insoniyatning kelgusidagi rivojida ezgulik g'oyalarning yovuzlik g'oyalari ustidan g'olib kelishi muqarrardir. Chunki, insoniyat doimo tinchlik uchun o'zaro o'rnatilgan mafkuraviy munosabatlar tufayli birgalikda hamjihat bo'lib kurashib kelgan va bu kurashda g'olib bo'lgan.

Obyektiv olamda o'zining turli xil miqdor va sifat ko'rsatgichlariga ega bo'lgan narsalar mavjud bo'lib, ular bir-birlari bilan bevosita yoki bilvosita bog'langanlar. Narsa, hodisa va jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar davrida bir lahzada, fursatda, pallada, mavridda sodir bo'ladigan bevosita aloqalar munosabatni keltirib chiqaradi. Demak, munosabat deb obyektiv olamda mavjud bo'lgan narsa, hodisa, jarayonlarning miqdoriy va sifatiy xossalari o'rtasida bir lahza, fursat, palla, mavrid ichida sodir bo'ladigan bevosita aloqalariga aytiladi.

Obyektiv olamdagi narsalar qanchalik obyektiv bo'lsa, ular o'rtasidagi munosabatlar ham shunchalik obyektiv va universal bo'ladi. Har qanday narsaning mavjudligi, uning o'ziga xos xususiyatlari va xossalari hamda rivojlanishi obyektiv olamning boshqa narsalariga bo'lgan munosabatlarining butun majmuiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda munosabatlar turli tuman va xilma-xildir. Ularni jamiyatda amal qilish darajasiga qarab katta ikki guruhga moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish munosabatlariga ajratish mumkin.

Moddiy ishlab chiqarish munosabatlariga kishilarning moddiy shakldagi – oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy va boshqalarni yaratish hamda ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xizmatlar – yuk tashish, axborot uzatish, yo'lni tashish kabilarini bajarish vaqtida bo'ladigan aloqalari kiradi.

Ma'naviy ishlab chiqarish munosabatlari deb umuminsoniy va milliy qadriyatlardan iborat bo'lgan ma'naviy boyliklarni yaratish uchun kishilar o'rtasida ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilishni tashkil etish borasida bo'ladigan o'zaro dialektik aloqalar tizimiga aytiladi. Masalan, ijtimoiy ong shakllari – fan, axloq, din, huquq, siyosat, san'at, mafkura va sh.k.

yaratish va takror ishlab chiqarish borasidagi bo‘ladigan munosabatlar shular jumlasiga kiradi. Ma’naviy ishlab chiqarish munosabatlari ichida mafkuraviy munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Insonning ma’naviy dunyosi *birinchidan*, obyektiv olamda mavjud bo‘lgan narsalarning in’ikosi, *ikkinchi* tomondan, jamiyatda sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlarning hosilasi, *uchinchi* tomondan, g‘oyaviy ijodiyotining mahsuli ekanligi bilan ajralib turadi. Fikr orqali tug‘iladigan g‘oya, g‘oyalardan tashkil topadigan mafkura o‘zining genezisi, evolyutsiyasi va rivojlanish jarayonida turli xil narsalar bilan munosabatda bo‘ladi va o‘zining bunyodkorlik yoki vayronkorlik xususiyatlarini namoyon qiladi. Demak, jamiyat hayotining ideosferasida mafkuraviy munosabatlar *birinchidan*, real voqelikning in’ikosi shaklida obyektiv – ontologik; *ikkinchidan*, mazkur voqelikning sub’ektiv obrazi tarzida sub’ektiv – gnoseologik mazmunga ega bo‘lgan o‘zaro bog‘lanishlarning bir lahza, fursat, pallada sodir bo‘ladigan o‘zaro aloqalarining majmui sifatida mavjudligi bilan ifodalanadi. Shunday ekan, mafkuraviy munosabatlar deb nimaga aytiladi, degan savol tug‘iladi? Bunga mafkura va munosabat tushunchalarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda quyidagicha falsafiy ta’rif berish mumkin.

Mafkuraviy munosabatlar deb – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, elat, millat, xalq jamiyat, davlat ehtiyoj va manfaatlari, orzu-istak, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma’naviy tamoyillarini ifoda etadigan g‘oyalar sub’ektlari o‘rtasida bir lahza, fursat, palla, mavrid ichida o‘zligini bunyodkorlik yoki vayronkorlik xususiyatlari orqali namoyon qiladigan aloqalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimiga aytiladi. [3, 100-bet].

Mafkuraviy munosabatlarning sub’eklariga esa, *birinchidan*, muayyan bilim asosida shakllangan dunyoqarashga ega bo‘lgan shaxslar; *ikkinchidan*, ko‘zlagan maqsadlari mushtarak bo‘lgan mehnat va xizmat jamoalari; *uchinchidan*, biron bir g‘oyani amalga oshirish uchun birlashgan ijtimoiy guruhlar, partiyalar, davlat va nodavlat tashkilotlari; *to‘rtinchidan*, jamiyatning strategik maqsadini amalga oshirish bilan bevosita shug‘ullanayotgan davlat va jamoat arboblari; *beshinchidan*, g‘oyaviy va mafkuraviy targ‘ibot-tashviqot ishlari bilan bevosita shug‘ullanadigan mutaxassis mafkurachilar; *oltinchidan*, har qanday aloqalarni ta’minlashga va ularni yo‘naltirishga xizmat qiluvchi targ‘ibot-tashviqot vositalari tashkil etadi. Demak, mafkuraviy munosabatlarning sub’ektlari – bu g‘oyaviy-mafkuraviy maqsadlar mushtarakligi asosida, uni amalga oshirish uchun o‘zaro munosabatga kirishayotgan shaxslar, mehnat va xizmat jamoalari, ijtimoiy guruhlar, partiyalar, davlat va nodavlat tashkilotlari, mafkurachi mutaxassislar, davlat va jamoat arboblari hamda ular o‘rtasidagi mafkuraviy aloqalarni tartibga solishga, yo‘naltirishga xizmat qiluvchi turli xil targ‘ibot-tashviqot vositalaridan iborat bo‘lgan tizimdir.

Mafkuraviy munosabatlarning namoyon bo‘lish xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Jamiyat hayotining mafkuraviy sohasidagi munosabatlar jamiyat hayotining o‘zi singari obyektivdir. Sub’ektivlik ana shu obyektivlikning namoyon bo‘lishi; Jamiyat hayotining mafkuraviy sohasi mafkuraviy munosabatlardan tashqarida mavjud bo‘lolmaydi. Mafkuraviy munosabatlar hamisha jamiyat hayotining mafkuraviy sohasidagi munosabatlari; Har qanday mafkuraviy hodisaning mavjudligi, uning o‘ziga xos xususiyatlari va xossalari, uning rivojlanishi jamiyat hayotining boshqa sohalariga bo‘lgan mafkuraviy munosabatlarining butun majmuiga bog‘liqligi; Biron bir mafkuraviy hodisa, jarayonga zaruran xos bo‘lgan xossalarning o‘zi faqat ularning boshqa narsa, hodisa va jarayonlarga bo‘lgan mafkuraviy munosabatlarida yuz beradi. Mafkuraviy hodisaning rivojlanishi uning boshqa hodisalar bilan munosabatining o‘zgarishiga, ya’ni bir mafkuraviy munosabatlarning yo‘qolib, ikkinchi mafkuraviy munosabatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Jamiyat hayotidagi narsa, hodisa, voqea va jarayonlar va ularning xossalari xilma-xil bo‘lgani singari, mafkuraviy munosabatlar ham xilma-xildir. Bunda, ichki va tashqi mafkuraviy munosabatlar tafovutining nisbiy xarakterini, ularning bir-biriga o‘tib turishini, tashqi mafkuraviy munosabatlar ichki mafkuraviy munosabatlarga bog‘liq ekanligini, ularning zuhuroti va namoyon bo‘lishi ekanligini hisobga olmoq zarur.

Har qanday mafkuraviy munosabat yaratilgan ma’naviy boyliklarni iste’mol qilish, taqsimlash, ayirboshlash kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo‘lib, ular o‘zligini o‘zaro bo‘ladigan muloqotlar orqali namoyon qiladi. Bunday muloqotlar bunyodkor yoki vayronkor

g'oyalar tamoyiliga qarab o'rnatiladi va muayyan mafkuraviy munosabatlarning o'ziga xos bir tarzda jamiyatning mafkuraviy faoliyat yuritishi uchun zamin hozirlaydi.

Jamiyat hayotida yuz beradigan mafkuraviy munosabatlar mafkuraviy faoliyat olib borishning debochasi hisoblanadi. Faoliyat – bu insonning tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan narsa, voqea, hodisa va jarayonlarning tub mohiyatini bilish asosida uni o'zlashtirish va maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirishga qaratilgan harakatchanlik, ta'sirchanlik, samaradorlikdan iborat bo'lgan mashg'ulot, ish-harakatlaridan tashkil topgan muhim hayotiy xususiyatidir.

Inson faoliyatining asosiy manbaini mehnat tashkil qiladi. Mehnat – bu insonning naf yetkazadigan faoliyati bo'lib, u orqali tabiat va jamiyatdagi narsalarga ta'sir etadi, ularni o'z ehtiyoj va maqsadlariga muvofiqlashtiradi. Uning natijasi o'rganish va o'zlashtirishda ko'rinadi. O'zgarishlarni amalga oshirish xususiyatiga ko'ra, inson faoliyati ikki: birinchidan, reproduktiv – qayta ishlab chiqaruvchi; ikkinchidan, produktiv – yangini yaratuvchi turlarga ajratiladi. Shu bilan bir qatorda shaxs, elat, millat, xalq, jamiyatning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda faoliyat shakllarini quyidagi turkumlarga ajratish mumkin:

1) *moddiy faoliyat* (tashqi tabiatni o'zgartirish orqali odamning birlamchi ehtiyojlari — oziq-ovqat, kiyim, mehnat qurollariga bo'lgan ehtiyojini qondirish);

2) *ijtimoiy-siyosiy faoliyat* (ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etishning turli shakllari, ijtimoiy hayotni tashkil etish);

3) *ma'naviy faoliyat* (fan, san'at, din, mafkura va hokazolar sohasidagi faoliyat).

Inson va jamiyat faoliyatining barcha shakllari, turlari, avvalo, mehnat taqsimoti, odamlar, jamiyat ehtiyojining o'sib borish jarayonida o'zgarib, rivojlanib boradi. Shunday xususiyatga ega bo'lgan faoliyat shakllaridan biri – bu mafkuraviy faoliyat hisoblanadi.

Jamiyatda yashovchi turli xil millat, elat, xalq, irq, diniy e'tiqod, ijtimoiy tabaqa, sinf, partiya kabi uyushma, birlashma, tashkilot, jamoalarga mansub bo'lgan odamlar orasida, ularning shaxsiy hamda umumiy manfaatlarini ifodalovchi g'oya va mafkuralar tizimini yaratish, ularni hayotga tatbiq etish mafkuraviy faoliyat orqali amalga oshiriladi. Alalxusus, mafkuraviy faoliyatsiz hech bir jamiyat yashay olmaydi, bu siz yashab kelayotgan jamiyatni tarixda ham, bugungi kunda ham hech kim uchratgan emas.

Jamiyatda kimlarning aql-idroki, tashabbusi, ilmiy-amaliy izlanishlari orqali yaratilgan fikr, g'oya, mafkura o'z-o'zidan tarqalib, kishilar ongiga avtomatik tarzda singib boravermaydi. Demak, muayyan g'oyaviy tamoyillar va ta'limotlar ishlab chiqilishining o'zi ularning kishilar faoliyatini belgilab beruvchi, unga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy hodisaga aylanishi uchun yetarli emas. Buning uchun ular kishilar orasida tarqalishi, odamlar ana shu g'oyalar ruhida tarbiyalanishi lozim. Aks holda, har qanday g'oya va mafkura qanchalik to'g'ri, jozibador bo'lmasin, muayyan hodisa sifatida tarix sahifasida qolib ketaveradi. Ayni paytda, har qanday g'oya va qarashlar tarqalishi uchun, eng avvalo, ular ishlab chiqilishi bilan birga, targ'ib va tashviq etilishi zarur. Mafkuraviy faoliyat esa hamisha shakllangan g'oyaviy qarashlar, baholar va maqsadlar tizimini odamlarga yetkazish, ularning ongiga singdirish borasidagi ishlarni amalga oshirish jarayonini anglatadi.

Shu ma'noda, mafkuraviy faoliyat – bu biron-bir g'oyani amalga oshirish, uni aholi ongi va qalbiga singdirish, muayyan g'oyaviy qarashlar tizimini shakllantirish, uning amaliyotini ta'minlash, yot va begona mafkuralarga qarshi kurash bilan bog'liq chora-tadbirlar majmuidan iborat bo'lib, u g'oyaviy qarashlar – bilimlar, baholar, maqsadlarni shakllantirish hamda ularni tarqatish, g'oyaviy tarbiyani amalga oshirish, mafkuraviy profilaktika va immunitetni shakllantirish jarayonini ham o'z ichiga qamrab oladi.

Hozirgi kunda mafkuraviy faoliyat olib borishdan maqsad milliy istiqlol mafkurasining g'oyalarini xalq qalbi va ongiga singdirish ishlarini tashkil etishdan iborat.

Mafkuraviy faoliyat jamiyat a'zolari, ularning sub'ektlari tomonidan ko'zlangan maqsadlariga qarab *muayyon tamoyillar* asosida olib boriladi. Ularni g'oya va mafkuralarning jamiyatda tutgan o'rniga qarab bir biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki turga ajratish mumkin.

**Birinchisi**, bunyodkor g'oyalarni amalga oshirishga qaratilgan mafkuraviy faoliyat tamoyillar bo'lib, ularga:

a) *yaratuvchanlik* – insonning tinch va osuda hayot kechirishini, og‘ir va mashaqqatli mehnatini yangillashtirishga qaratilgan yashashini samarali ijodiy mehnat;

b) *gumanizm* – inson qadr-qimmatini, erkinlik va qobiliyatlarining har tomonlama namoyon bo‘lishi uchun kurashish, kishilarning baxt-saodati, teng huquqligi, adolatli hayotini ta‘min etishga intilish;

v) *plyuralizm* – fikrlar, g‘oyalar, qarashlarning xilma xilligiga asoslangan, mafkuraviy yakka hukmronlikni cheklovchi tafakkur erkinligi;

g) *tolerantlik* – xilma xil e‘tiqodda bo‘lgan kishilarning olijanob g‘oya va maqsad, niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashga intilish;

d) *hurfiylik* – muayyan aqidalarga e‘tiqod xususida erkin fikr yuritib, biron bir g‘oyani mutlaqlashtirishga qarshi bo‘lgan, mafkuraviy tazyiqlarni inkor qiluvchi va haqiqatni topishda aqlga asoslanuvchi tafakkur tarzi», [4,343-bet] va boshqalar.

Ikkinchisi, vayronkor g‘oyalarni amalga oshirishga qaratilgan gayriinsoniy mafkuraviy faoliyat tamoyillari bo‘lib, ularga:

a) *buzg‘unchilik* – odamlar orasida ig‘vogarlik, g‘alamislik, chaqimchilik, g‘iybat, tuhmat qilish kabi axloqqa zid illatlar bilan shug‘ullanib jamiyatda notinchlik, parokandalik, vayronlikni keltirib chiqarish;

b) *bosqinchilik va talonchilik* – o‘zgalarning mol-mulki zori bilan talash, qurol kuchi bilan o‘zga yurtini bosib olish, agressiya, tajovuzkorlik;

v) *fahshiyatlik* – zino ishlariga haddan tashqari berilish, buzuvchilik, axloqsizlik va shahvoniy nafs balosiga yo‘liqish;

g) *g‘oyasizlik* – hayotda yuksak g‘oyasi, ezgu orzu-intilishlari bo‘lmagan, ma‘naviyati tuban, imon-e‘tiqodi sust, mafkurasi buzuvchi, o‘z o‘tmishi va nasl-nasabini bilmaydigan, ota-onasiga qo‘l ko‘tarishdan ham tap tortmaydigan, o‘z Vatanini sotishga qodir kimsalar amal qiladigan g‘ayriinsoniy qoidalar;

d) *aqidaparastlik* – muayyan sharoitda, biron bir g‘oya yoki tamoyilga qat‘iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni, boshqa sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko‘r-ko‘rona qo‘llashga urinish va boshqa shu kabilar kiradi.

**Xulosa.** Shunday qilib, mafkuraviy faoliyat yuritish tamoyillari deb jamiyatning ma‘naviy-mafkuraviy ongida ishlab chiqilgan, insonning g‘oyaviy-mafkuraviy e‘tiqodi mohiyatiga, burchiga, hayotining mazmuniga va kishilar o‘rtasidagi o‘zaro g‘oyaviy-mafkuraviy aloqalarning tabiatiga taaluqli bo‘lgan umumiy talablarni aks ettiradigan, insonlar faoliyatining umumiy yo‘nalishini ko‘rsatib beradigan va muayyan g‘oyaviy-mafkuraviy xulq-atvor normalariga asos bo‘lib xizmat qiladigan qonun-qoidalarga aytiladi.

O‘zbeklar azaldan bunyodkor xalq bo‘lgan. Bugungi kunda ularni zamonaviy bunyodkor g‘oyalari bilan qurollantirib borish esa ma‘naviy-mafkuraviy faoliyat olib borish ishlariga mas‘ul bo‘lgan shaxslar, tashkilotlar, vijdonli, mas‘uliyatli, adolatparvar ziyolilarning Vatan oldidagi burchidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g‘oya-taraqqiyot strategiyasi -T.:Fan. 2017.
2. Nazarov Q. G‘oyalar falsafasi. -T.:Akademiya 2017.
3. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g‘oya va mafkura. -T.:Fan. 2015.
4. Milliy g‘oya targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati.T.:Muharrir. 2009.
5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida» qonuni. 2017 yil 3 yanvar, O‘RQ-419-son.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi// Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, NMIU, 2017. - B.110.

# МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 5, СОН 3

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

ТОМ 5, НОМЕР 3

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

VOLUME 5, ISSUE 3

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000